DAVLAT ISHTIROKIDAGI BANKLARDA PASSIVLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH ("BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI" ATB MISOLIDA)

Maxmudov Otabek Mexmonovich
Biznesni rivojlantirish banki
Bank tarmoqlarini muvofiqlashtirish departamenti
tarkibidagi Tarmoqlarni samaradorligini
tahlili qilish boshqarmasi boshlig'i
E-mail: o.maxmudov@brb.uz

Annotatsiya. Mazkur tezisda davlat ishtirokidagi banklarda passivlar barqarorligini ta'minlash masalalari "Biznesni rivojlantirish banki" ATB faoliyati asosida o'rganilgan. Ishda bankning 2021–2025-yillardagi balans ko'rsatkichlari, majburiyatlar tuzilmasi va NSFR qiymatlari tahlil qilingan. Bank depozitlari jadal o'sayotgani, ammo majburiyatlarning yarmidan ko'pi davlat va xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilingan qarzlar hissasiga to'g'ri kelishi hamda uzoq muddatli moliyalashtirish zaxirasi torligi aniqlangan, resurs bazasini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat banklari, depozitdan tashqari resurslar, kovenantlar, kredit-depozit nisbati, NSFR, konsentratsiya riski, passivlar barqarorligi.

Kirish

Bank tizimini isloh qilishning 2020–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasi davlat banklarining byudjet va davlat jamg'armalari mablag'lariga tayanishini kamaytirishni asosiy maqsadlardan biri qilib belgilagan[1]. Ilmiy adabiyotlarda noasosiy (depozitdan tashqari) majburiyatlar ulushining oshishi bank zaifligining erta signali sifatida qaraladi[2], mahalliy tadqiqotlarda esa ba'zi banklarda balansdagi depozitlar hissasi qisqarib, qarzga olingan resurslar hissasi ortgani ko'rsatilgan[3].

Tezisning maqsadi "Biznesni rivojlantirish banki" ATB (BRB) misolida resurs bazasining barqarorlik darajasini aniqlash va uni oshirish yo'llarini ko'rsatib berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Ishda koeffitsiyentlar tahlili, dinamik va tarkibiy qiyoslash usullari qo'llanildi. Ma'lumotlar Markaziy bank statistikasi va BRBning MHXS bo'yicha auditdan o'tgan hisobotlaridan olindi.

Tahlil va natijalar

BRB davlat ishtirokidagi bank bo'lib (aksiyadorlari – O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (52,30%) hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi (47,16%)[4]), uning resurs bazasi uzoq vaqt davomida, asosan, hukumat va xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan shakllanib kelgan. Shu bois tahlil depozitlarning kreditlarni qoplash darajasini baholashdan boshlandi (1-jadval).

1-jadval


BRB balansining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi[5]

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Aktivlar, trln so'm	20,7	24,8	27,1	32,1	38,2
Kreditlar, trln so'm	17,5	20,3	21,8	22,5	24,6
Depozitlar, trln so'm	6,5	8,8	9,4	10,8	15,2
Depozitlar / kreditlar, %	37,1	43,3	43,1	48,0	61,8

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.


Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Depozitlar o‘sishi, %	–	+35,4	+6,8	+14,9	+40,7
Kreditlar o‘sishi, %	–	+16,0	+7,4	+3,2	+9,3

1-jadvaldan ko‘rinadiki, 2021–2025-yillarda BRB depozitlari 2,3 barobar oshgan, kreditlar esa 40,6 foizga o‘sgan. Natijada depozitlarning kreditlarni qoplash darajasi 37,1 foizdan 61,8 foizga ko‘tarilgan. Ayniqsa, 2025-yilda depozitlar 40,7 foizga oshgan, bu kredit o‘sishidan (9,3 foiz) 4 barobardan ko‘proq tezdir (1-rasm).



1-rasm. BRBda kreditlar va depozitlar dinamikasi, trln so‘m[5]

Shunga qaramay, kredit portfelining 38 foizdan ortig‘i hali ham depozitdan tashqari resurslar hisobidan moliyalashtirilmoqda. BRBning MHXS bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, 2025-yil yakunida bank majburiyatlarining 57,9 foizi (19,9 trln so‘m) hukumat va xalqaro moliya institutlari qarzlaridan, 31,0 foizi mijozlar hisobvaraqlaridan iborat bo‘lgan[4]. Bu resurslar uzoq muddatli bo‘lgani sababli bankning qisqa muddatli likvidliligi yuqori, biroq uzoq muddatli barqaror moliyalashtirish bo‘yicha bufer tor (2-rasm).



2-rasm. BRBda likvidlilik me’yorlari dinamikasi, foizda[5]

2-rasmga ko‘ra, BRBda LCR 2023–2024-yillarda minimal talabdan 2,5 barobardan ortiq bo‘lgani holda NSFR 107–110 foiz oralig‘ida qolib, minimal talab ustidagi zaxira 7–10 foiz banddan oshmagan (2022-yil bo‘yicha ma’lumot ochiqlanmagan). Bundan tashqari, depozitdan tashqari resurslar kovenantlar bilan bog‘langan: 2025-yil yakunida IFAD orqali jalb qilingan 163,5 mlrd so‘mlik resurs bo‘yicha

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

shartnomaviy talablarning bir qismi bajarilmagan[4]. Mijozlar mablag'larining qariyb beshdan ikki qismi (38,4%) davlat va jamoat tashkilotlariga tegishli bo'lib[4], depozit bazasida konsentratsiya riski ham yuqori. Ijobiy jihati – 2025-yilda bankda aholi omonatlari 88,7 foizga ko'paygan, bu ko'rsatkich bo'yicha bank an'anaviy banklar ichida birinchi o'rinni egallagan[6].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi davlat ishtirokidagi banklarda passivlar barqarorligini depozitdan tashqari resurslarga bog'liqlik, kovenant riski, mijozlar hisobvaraqlari konsentratsiyasi va NSFR buferini birgalikda qamrab olgan holda baholash yondashuvi taklif etilganidan iborat.

Umuman olganda, BRBda passivlar barqarorligini ta'minlash uchun majburiyatlarda mijozlar mablag'lari hissasini kamida 40 foizga yetkazishni ko'zda tutuvchi resurs bazasini rivojlantirish dasturini qabul qilish; davlat tashkilotlari va eng yirik 20 ta mijoz mablag'lari ulushiga ichki limitlar belgilash; hukumat va xalqaro moliya institutlari qarzlari bo'yicha qayta moliyalashtirish jadvali va kovenantlar bajarilishini oylik monitoring qilish hamda NSFR bo'yicha minimal talab ustidagi zaxirani 15–20 foiz bandga yetkazishni bankning risk-appetit bayonotiga kiritish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. https://lex.uz
2. Hahm J.H., Shin H.S., Shin K. Noncore Bank Liabilities and Financial Vulnerability // Journal of Money, Credit and Banking. 2013. Vol. 45(s1). P. 3–36.
3. Shermuxamedov B.U. Tijorat banklarining depozit portfelini tahlil qilish metodikasini takomillashtirish // Iqtisodiyot va ta'lim. 2023. №1. B. 130–134.
4. https://brb.uz. "Biznesni rivojlantirish banki" ATB. MHXS bo'yicha 2025-yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot va mustaqil auditor xulosasi.
5. https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklar kesimidagi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.
6. Trillionlar qayerda saqlanmoqda: jismoniy shaxslar depozitlari darajasi bo'yicha O'zbekiston banklari reytingi // Kursiv Uzbekistan. 2026-yil 24-fevral. https://uz.kursiv.media

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.